

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

“Musiq va mehnat ta'limi” kafedrası

“5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo'nalishi

32-11 guruh talabasi *Otajonov Do'stimbekning*

**“Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy
jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish”**

mavzusida bajargan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Rahbar: “Musiq va mehnat ta'limi”
kafedrası o'qituvchisi *H. Toshboyev***

Guliston – 2015 y

Bitiruv malakaviy ish Guliston davlat universitetining 2015 yil 15 apreldagi 137-S-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya komissiyasining ____-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va "____" ball bilan (_____) baholandi.
(a'lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ish "Pedagogika fakulteti" ning 2015 yil "____" _____dagi ____-sonli Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun taqdim etildi.

Fakultet dekani

J.Komilov

Bitiruv malakaviy ish "Musika va mehnat ta'limi" kafedrasining 2015 yil "____" _____dagi ____-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri

N.Raximov

BMI bajaruvchi "5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 32-11 guruh talabasi _____**D. Otajonov**

Rahbar "Musika va mehnat ta'limi" kafedrasi
o'qituvchisi _____**H.Toshboyev**

Guliston – 2015 y.

Mundarija:

<i>Kirish</i>	3
I-Bob. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning metodik asoslari	
1.1.Interyerni tashkil etish asoslari.....	10
1.2.Binolarni zamonaviy jihozlashda xonadon jihozlarining o'rni.....	16-19
II-Bob. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish uslublari	
2.1. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishda o'qitish metodikasi.....	20-26
2.2. Tajriba sinov ishlari va uni o'tkazish metodikasi.....	27-34
Xulosa va ilmiy metodik tavsiyalar	35-37
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	38-39
Ilovalar	40-44

Kirish:

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi 23 yil mobaynida mamlakatimizda boshqa sohalar qatori qurilishda ham juda katta yutuqlarga erishildi. Ko'plab hashamatli binolar, sport saroylari, yopiq bozorlar, zamonaviy ko'cha va maydonlar, hiyobonlar va bog'lar, turar-joy binolari, kollejlari, litseylar va boshqa qurilgan imoratlar qurilish va arxitektura sohasidagi ishlarning ko'lamidan dalolat berib turibdi.

Bugungi kunda arxitektura ijtimoiy-iqtisodiy, estetik, demografik va ko'p asrlik tarixiy madaniyat an'analarining birligini tiklamoqda.

Binoning ichki ko'rinishining tasviri **interer** deb ataladi. Rangtasvir va grafikada interer tasvirlari ko'plab ishlangan.



Arxitekturaning alohida ichki fragmentlari va vaziyatlari Qadimgi Misr va antik san'atda uchraydi. Eramizdan avvalgi birinchi asrlardayoq Pompey freskalari bizga ajoyib, butunlay fantastik perspektivaga asoslangan tasvirli arxitektura kompozitsiyalarini namoyon etadilar.

O'rta asrlarda inson va muhit munosabatidagi qimmatli odim sifatida Xitoy rangli tasvirlari yaratilgan.

O'rta asr miniatyura va ikona ustalari uylarni xuddi teatr dekoratsiyalariga o'xshash qilib tasvirlaganlar.


Italiya uyg'onish davri san'ati boshlovchilaridan Djotto o'z ijodida narsalarning (buyumlarning) haqiqiy nisbatlarini to'g'ri va «yashil» simon intererlarda tasvirlashga harakat qildi. Uyg'onish davri san'atining katta yutuqlaridan biri Chiziqli geometrik perspektiva yuzaga kelganligida deb aytish mumkin. Bu esa P.Uchchello, P.della Franchesko, D.Girlandayo, P.Perudjina, A.Verrokko ijodida

haqiqat va go'zallikni tasvirlashning asosiy omili sifatida yorug' - soyaninggina emas, balki tasvirni shoironalashtirish rolini ham o'ynaydi.

Florentsiyada fazoviy perspektivani A.Doldovinetti ishlab chiqadi, lekin uni asosan Leonardo da Vinchi yuqori darajaga ko'taradi. qaysiki interer echimi faqat inson bilan muhitning munosabatiga yaqin bo'libgina qolmaydi, balki, yorug' - soya berish, poetiklashtirish rolini ham o'ynaydi. Titsian, Veroneze va Tintoretto asarlarida binolarning ulug'vorligini, tantanaviyligini ko'rsatib beradilar.

G'arbiy uyg'onish davri ustasi Ya. Van Eykdan boshlab va R. van der Veydenlar aksincha alohida mehr bilan «uy uchi dunyosi» - hissiyotli buyumlar olamini ifodalaydilar. Ularda mehribonlik bilan buyumlar fakturasini detallashtirib berilishi XV-XVII asrlarda niderland va nemis ustalariga katta ilhom beradi va asarlarda alohida shinamlikni his etishga olib keladi.

XVII yuz yillikda usta golland rassomlari Ya.Sten, A.van Ostade, G.Metsyu va Gerborx kabilar intererga alohida ahamiyat beradilar. «Quyosh nurining sahiyligini tasvirlashni» qoyilmaqom egallagan Ya.Vermer Delfetskiy quyosh yorug'i tushgan uy ichlarni insonni entiktiruvchi bir (poetika) ilhom bilan beradi. Uning ijodi janrli rangtasvirning alohida maktabini yaratilishiga turtki bo'ldi va rassomlar interer va hissiyotli shahar manzaralariga alohida kechinma bilan yondoshdilar. P. de Xoxni ehtimol to'liq intererchi rassom desa bo'lar, qaysiki, uning ijodida binolar o'ta izlanuvchanlik bilan quriladi. Yashayotgan odamlarga nisbatan K. van der Vlit va E. de Vitte rangtasvirlari «toza intererchasiga» berilib, u faqat xususiy binolarnigina emas, balki cherkovlarning ichlarini ham tasvirlaydi. Vittening «cherkov intererlari» juda ko'plab Evropa davlatlari rassomlari uchun namuna bo'ldi.



F.Xals, Rembrandt, D.Velaskeslarning ijodida ham interer tasvirlari chetda qolmagan va xatto odamning ichki olamiga qiziqishni o'sishi bois peyzaj bilan

emas, interer bilan qiziqadilar, ular alohida berk xonada shaxs engil ko'rinadi deb hisoblaydilar.

XVIII asrga kelib J.B.S.Sharden intererni tasvirlashning fidoyisi va kuylovchisiga aylanadi. Ingliz - qariya U.Xochartda har bir predmetning vaziyati ma'lum mazmunli rolni o'ynaydi.

XIX asr klassitsizm vakillari J.L.David, J.O.D.Englar intererni analitik aniqlikda ifodalaydilar. Realistlar G.Kurbe va J.F.Millelar har bir joyning sotsial xarakteristikasiga dehqon uyi yoki rassom ustaxonasi kabi yon bosadilar.

E.Mone va impressionistlar (E.Dega va boshqalar) tasvirlangan binolarning fazosini xuddi kadrqa olgandek qilib ko'rsatishni yoqtirdilar.

XIX asrning birinchi yarmida A.G.Venitsianov raxbarligida dehqonlarning hayotiga oid maishiy, ichki va shahar binolarini to'plamli tasvirlash bilan butun bir intererni tasvirlovchilar maktabi tashkil bo'ldi. Predmetlar dunyosiga qiziqish P.A.Fedo-tovning intererlarida muvaffaqiyatsizlik yoki dramatizm kayfiyati echimida beriladi. Masalan, uning «Yangi amaldor» (1846, D.T.U), «Mayorning uylanishi», ko'chmanchi rassomlar ijodida esa ayniqsa I.E.Repinning «Kutmagan edilar» (1884-1888 D.T.G), kabi asarlarida interer o'z egalarining qarashlari, sotsial yashash tarzi xaqida ma'lumot beradi.

Interer elementlarini V.A.Serov ijodida portretidagi shaxsni xarakterini ochib berishga bo'ysindirilgan holda ko'rinadi. Masalan, «Qiz va shaftoli» (1887. DTG) va boshqa qator portretlarida badiiy obrazni ochib berishda interer elementlari muvaffaqiyatli rol o'ynaganligini ko'ramiz

Rassomlar N.V.Nesterovning «Akademik I.P.Pavlov portreti» (1935, DTR), Petrov-Vodkin «1919 yil. Trevoga» (1934, DRM) «Ona» (1915, DRM), asarlarida interer alohida e'tibor bilan ishlangan. Shuningdek, quyidagi asarlarda ham intererdan muvaffaqiyatli foydalanilgan;

Ya. van Eyk «Arnolfini» portreti (1434 London. Milliy galereya), E.Mane. «Foli – Barjer bari» (1811-1882, London) D.Velaskes. «Meninilar» (1656, Prado. Madrid).

Grafikachi rassom V.A.Favorskiyning grafik tasvirlarida ham interer tasvirlarini uchratamiz.

Interyer – tashkil etilgan fazoviy kenglik sifatida faqat arxitekturaning ajralmas qismi bo'libgina qolmasdan, balki uni arxitekturaning boshlang'ich asosi deb ham atashadi. Tarixiy tarzda to'planga tajriba va hozirgi vaqtdagi voqelikning guvohlik berishiga ko'ra interyerning yechimi avval ham, bundan keyin ham arxitekturaviy faoliyatning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi. O'ziga xos ichki muhitni yaratishda turli profilda faoliyat yuritayorgan mutaxassislar – texnologdan boshlab rassom va dizaynerni o'z tarkibiga birlashtirishdek vazifani bajarishda yetakchilik qilish roli interyerga tegishlidir. Interyer muhit sifatida ichkarida qabul qilinadigan arxitekturaviy shaklning estetik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etadi. Interyerning arxitekturaviy obyekt turiga (xona, bin ova h.k) bog'liq bo'lgan differensiyalashgan tushunchasi muhitning ma'lum bir turi ko'rinishini joylashtirishning aniq usulini belgilashdan iboratdir.

Interyer estetik shakllanishning jihatlarini anglash uchun ichki muhit tashkil etilishining spetsifikasini chuqur o'rganish talab etiladi. Zamonaviy qurilish sifatini oshirish sharoitlarida sun'iy muhitning naqat fuksional, balki estetik tomonlari ham alohida katta ahamiyat kasb etadi. Odamlar vaqting aksariyat qismi o'tadigan interyerning yechimiga arxitekturaning sifati, spetsifik mazmunining qabul qilinishi va san'at sifatida baholanishi ham bog'liq bo'ladi.

Ichki fazoviy kenglikni, aniqrog'i interyerni loyhalash zarururiy maxsus tayyorgarlikni talab etadi. "Interyer bo'yicha ixtisoslashtirish" deganda loyihalash jarayonini tashkil etishning zamnaviy jamoa formasidan bevosita amaliy foydalanishga ega bo'lgan arxitektor faoliyatining zarur sohalaridan birini chuqur o'rganish nazarda tutitladi.

Interyer bo'yicha bajariladigan ijodiy ishning harakteri shakl, plastika, yorug'lik, rang, tekstura va faktura, materialning rolini chuqur tushuntirib bera oladigan spetsifik bilimlarni talab etadi. Konkret xona va ular sistemasida hayotiy muhitni tashkil etish imkoniyati haqida, har xil tipdagi ichki fazoviy kengliklarni qabul qilishning jihatleri, ularning o'lchamlari va shakli haqida, to'suvchi

yuзалarning arxitekturaviy kompozitsiyasining spetsifik vositalari va usullari haqida real tasavvurlarga ega bo'lish bo'lajak arxitektorlar uchun juda zarurdir. Tasviriy san'at bilan birgalikda sintezdan foydalanish deganda nafaqat ularning turlarini va bajarish usullarini bilish, shuningdek, interyerining obrazli yechimiga organik tarzda kiritiladigan murakkab bo'lmagan kompozitsiyalarni mustaqil ravishda eskizlashtira olish bo'yicha egallanadigan saviyalar ham tushuniladi. Muhitda jihozlarning roli alohida ahamiyat kasb etib, ular interyerining boshqa elementlari bilan birgalikda kompozitsiyaga kirib boradi. Bu spetsifik arxitekturaviy – dizaynerli loyihalashda namoyon bo'lib, bunda o'zining xususiy funksional o'lchamlariga ega bo'lgan jihozlash predmetlari “inson-predmet” bog'liqligiga javob bergan holda “predmet-muhit” deb ataluvchi adiiy talablarga muvofiq keluvchi estetik sifatlarni yuza chiqarmog'i lozim bo'ladi. Arxitektor yorug'lik va alohida yortisih vositalari (alohida chiroqlar) sistemasi, mebellar va mebellarning alohida tiplari sistemasi, ko'rish orqali qabul qilinadigan informatsiya (axborot)lar va ularning elementlari tizimlarini hisobga olgan holda loyihalashni uddalay olmog'i lozim.



Maktabda chizmachilik kursi umumtat'lim xarakteriga ega bo'lib o'quvchilarga politexnika ta'limi berishning tarkibiy qismidir. Kursdan kuzlangan maqsad - o'quvchilarga fazoviy shakllarni tekislikda tasvirlash usullarining nazariy asoslarini berish, grafikaviy tasvirlashning asosiy va eng ko'p tarqalgan usullarini o'rgatish, ularni grafikaviy vositalar orqali informatsiya berish jarayonida qo'llaniladigan shartli belgilar bilan tanishtirish.

Chizmalarni chizish va bajarishda kullaniladigan qoida va shartliliklarni o'rganish proekcion usullar asosida amalga oshiriladi Bularning qammasi chizmachilik kursini o'rganishga to'g'ri ilmiy yondoshishni ta'minlaydi va fanni

urgana boshlashdanoq turmush va mexnat bilan chambarchas bog'lab ta'lim berishga sharoit yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusidan kelib chiqib biz, biz o'z oldimizdagi maqsad va vazifalarni quyidagicha belgilab oldik:

Tadqiqotning maqsadi: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning samarali yo'llari, uslublari va vositalarini ishlab chiqish.


Tadqiqotning ob'ekti: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning shakl va metodlari.

Tadqiqotning vazifalari:

- 1.Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish jarayonining hozirgi holatini o'rganish.
2. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish yo'llarining mazmun va mohiyatini yoritish.
- 3.Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va ta'lim samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish, nazariy jihatdan tahlil etish; ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishda o'qituvchi mahoratining mavjud holatini o'rganish; pedagogik kuzatuv; suhbat; anketa so'rovi; pedagogik tajriba; matematik statistik metod.



Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha ta'limni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga oid xorijiy tajribalar, nazariyalar va kontsepsiyalar, shuningdek, respublikamiz olimlarining qarashlari; mavzuga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar, majmualar, tasviriy san'at davlat ta'lim standartlari va kontsepsiyasi bitiruv malakaviy ishimizning metodik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish muammosini pedagogik yo'nalishda mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etildi; ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunini va metodikasi aniqlandi; mazkur faoliyat samaradorligini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar tizimi ishlab chiqildi; ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish vositasida ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning mazmuni va mohiyati ishlab chiqildi; chizmachilikdan darsdan tashqari ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi mahoratining mazmuni, metodlari, shakl, va vositalari aniqlandi; tadqiq etilayotgan jarayonni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish omillari, yo'llari, pedagogik shart-

sharoitlari ko'rsatib berildi. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishning tarkibiy tuzilishi: Bizning bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 bob, 4 paragraf, tajriba sinov ishlari, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlaridan iboratdir.

Tadqiqot ishining bazasi: Tajriba sinov maydoni etib, Sirdaryo viloyati halq ta'limi boshqarmasi Guliston shahar XTB ga qarashli 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi belgilandi va tajriba sinov ishlari 9 sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi.



I-Bob. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning metodik asoslari.

1.1. Interyerni tashkil etish asoslari.

Har qanday xona yoki joyning u yoki bu jarayonlarining o'tkazilishini ta'minlashga qodirligi va ularda ma'lum bir komfortni yaratish ushbu xona yoki joylarning ichki kengligi va interyeriga qo'yiladigan estetik va ma'naviy talablar bilan kengligi va interyeriga qo'yiladigan estetik va ma'naviy talablar bilan uzluksiz aloqadorlikda ekanligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda,

arxitekturada qulaylik va go'zallik bir- biridan ajratib bo'lmaydigan tushunchalardir. Shuning uchun ichki fazoviy kenglikni yaratish u yoki bu jarayonning o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan hamma alohida talablarning jiddiy o'rganilishi, harakatlanish grafiklari va alohida xonalarning o'zaro bog'liqliklarini, maqbul tartib mezonlarini o'rganishni taqozo etadi. Faqat savolning kompleksli yechimi natijasidagina maqbul tushuncha ekanligini tasdiqlovchi holatga auditoriyani misol tariqasida ketirish mumkin, shuning uchun fuksiyaga interyer yechimining asosi deyiladi. Auditoriyalar lokal masalalar yechish ashyolarni doskada yoki ekranda namoyon etish orqali ma'ruzalar o'qishga va bu ma'ruzalarni tinglashga mo'ljallangan. Auditoriyaning sig'imi turlicha, ya'ni 50 kishidan 80 kishigacha bo'lgan va 400 kishi va undan ko'proq qatnashchidan iborat bo'lgan guruhlarini sig'dira oladi. Ma'ruzachi va doskani yaxshi ko'rish uchun qulay yorug'lik va ovozning jarangdor tarqalishini, mashg'ulot va dasrdan chalg'itmaslikni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish qator usullardan foydalanish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Amfiteatr orqadagi eshituvchining balandroq sathda o'tirishini ta'minlovchi auditoriyaning rejadagi va qirqimdag shaklidir. Yorug'lik tushadigan oraliqlarning shakli va o'lchamlari hamda auyditoriyalarni quyoshdan himoyalash, yuqoridan tushadigan yorug'likdan foydalanish, qaytaradigan osma tekisliklar ko'rinishdagi akustik moslamalar, shaklning lokalligi, rang – bularning hammasi qo'yilgan funksional masalalarni yuqori badiiy darajada yechishning usullari va uslublaridir. Auditoriya interyeri individual xarakteristikaga ega bo'ladi. Lekin shu bilan bir qatorda interyer ishtirokchilarining ma'ruza – mashg'ulot bpaytida diqqat – e'tiborlarini bir nuqtaga jamlashlariga xalaqit bermasligi va ularni eshituvchilarni chalg'itmasligi lozim. Interyer o'ta tinch, lokallik, osoyishtalikni ta'minlamog'I lozim va unda hech qanday o'rtiqchalikka ega bo'lmaslik talab etiladi. Unda hamma elementlar fuksionladir.



Turar – joy va jamoat binolarining ichki kengligiga qo'yiladigan talablar binoning bajaradigan vazifasiga, ya'ni uning nimaga mo'ljallanganligi bilan aniqlanadi va bu talablar qatori doimiy yoki o'zgarmas deb hisoblanmaydi. Bu talablar butun tarix davomida binolar ijtimoiy mohiyatining o'zgarishiga bog'qli ravishda o'zgardi va yangi talablar bilan to'ldirila bordi. O'zining kelib chiqishiga ko'ra qadimiy bo'lgan jamoat binolari qatoriga kiruvchi teatr misolida jamoat binolariga qo'yilgan va qo'yilayotgan talablarni tahlil qilish natijasida shuni kuzatish mumkinki, texnologik sahna talablari singari ijtimoiy talablar ham ichki kenglikning qurilishi o'zgarishi bilan uning o'lchamlari va qiyofasi ham o'zgarib bordi. Ma'lumki, bu o'zgarishlarning asosida, birinchidan, spektaklning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'lgan, teatr harakatining shakli va xarakterini aniqlaydigan talablar yotadi va xuddi shu yerdan zalning ko'rinishi kelib chiqadi. Ikkinchidan, teatrning shaxardagi ijtimoiy ahamiyatiga bog'liq bo'lgan talablardan uning sig'imi, o'lchamlari va tuzilishi kelib chiqadi. Ijtimoiy shart- sharoitlangan bu ikki g'oyadan zalning fazoviy qurilish talablari, uning interyeri hosil qilinadi.

Iqlimiy va tabiiy sharoitlar, landshaft, shuningdek shaxarsozlik konsepsiyasi ham ichki ichki kenglik alohida tomonlarining shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, ba'zan esa ular hamma talablar ichida hal qiluvchi talabga aylanadi. Qurilish joyining mavjud sharoitlari interyer shakllanishining aniqlovchi asoslaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Iqlim qator vaziyatlarda interyerning shakllanishida hal qiluvchi factor bo'ladi. Ayniqsa, chekka shimol va janubda u katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu hududlardagi optimal sharoitlarni ta'minlaydigan sun'iy mikroiqlim yaratadigan qulay sharitlardan keskin farq

qiladi. Chekka shimoliy rayonlarda doimiy muzlik bo'lib, Norilsk, Yakutsk va boshqa joylarda xarorat – 60 gradusgacha yetadi, shimol tezligi (kuchi) 5 mG'sek va undan yuqori bo'ladi. Shuning uchun yashash komplekslarining maksimal kompaktli bo'lishi, jamoat binolarining yashash joylariga yaqinlashtirilishi, yaqin ko'rinishi ularni bu hajmga birlashtirish orqali bitta yopilma ostida tashkil etish yoki hech bo'lmaganda galereyalar bo'yicha jamoat binolariga yetib borishini ta'minlash talab etiladi. Bu galereyalar odalmlarning – 50 va 60 gradus sovuqda ko'chaga chiqmasliklarini oldini oladi. Arxitektorlar oldida qutb orti sharoitlarida interyerni yaratishdek yangi qiziqarli masala turibdi va bu masala o'z yechimini kutmoqda. O'zek arxitektorlari tomonidan ishlab chiqilgan Leprinod posyolkasidan jamoat markazining loyihasi misolida chekka shimolni qator iqlimiy talablarini bajarishga qaratilgan birinchi urinishlar ko'rsatilgan. Do'konlar, oshxonalar, kinoteatrlar, klublar, bolalar bog'chalari va hatto maktablar kabi turli jamoat binolari bitta hajmga birlashtirilishining maqsadga muvofiqligi integratsiyalashgan jamoat fazosining hosil bo'lishini oldindan aniqlab beradi. Shu tariqa o'ziga hos interyer hosil qilinadi, interyer vertical va gorizontla bo'yicha birlashtirilgan katta kenglikni yaratishga doir bo'lgan jiddiy kompozitsion masalani o'zida namoyon etadi. Bu yerda ichki fazoviy kenglikning tashqi muhit bilan aloqasi ham unchalik kam bo'lmagan muhimlikka ega, chunki sutkaning yarmini ayozli shimol oqshomi tashkil etadi. Yopiq kenglikdan qo'rqish (klaustofobiya) shimol aholisida uchraydigan o'g'ir kasalliklardan biridir. Zamonaviy interyerda majburiy “yopiqlikni” bartaraf etish zarur. Inson uchun birinchi bo'lgan kunning sutkali tartibining buzilishi va oqshomning tabiiy biologic tartiblarni sindirishi tonus va ishlash qobiliyatini sezilarli darajda pasaytiradi, inson ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatadi.

Bino interyerida rang katta rol o'ynaydi. Tegishli rang koloristikasi yordamida insonning kayfiyatini va ruhiy holatini o'zgartirish va ma'lum bir me'yorda rostlash mumkin: uning emotsional tonusini ko'tarish, organizmning fizik ortiqcha singdiruvchanligini pasaytirish, quvonch va xushkayfiyatni hosil qilish, bayramona ruhiyat, ishbilarmonlik, xotirjamlik va hushyorlik, hozirjavoblik,

ish qobiliyatini ko'tarish va h.k. Bundan tashqari rangli effektlar bilan ma'lum darajada tashqi muhitning mikroiklimga ko'rsatadigan noxush ta'sirini qisman bartaraf qilish mumkin, kenglikda ma'lumotlik orientatsiyani, xonalarning sanitar – gigiyenik holatini yaxshilashga shart – sharoit yaratish mumkin. Rang yordamida xonaning xarorat – namlik rejimini rostlash va shovqinni bartaraf etish ham mumkin. Issiqlikning ortiqchaligini va yetishmasligini bartaraf qilish to'g'ridan yorug'likning tushish tomonlari bo'yicha yo'naltirishga bog'liq ravishda xonalar devorlarining bo'yalishiga tavsiyalar berilishi mumkin. Janubga qaratilgan xonalarda sovuq tonlar issiqlik nurlarini yaxshi yutadi, yorug'likning yorqinligini pasaytiradi, quyosh yorug'ligining "jazirama" psixologik ta'sirini bartaraf etadi.

Funksional jarayonlar va insonning emotsional – ruhiy holati uchun qulay tartibni shakllantirishda rang ancha katta rol o'ynaydi. Insonning emotsional – ruhiy holati binoning vazifasini va unda o'tkaziladigan maishiy yoki mehnat jarayonlarini hamda qurilishning aniq regionlari tabiiy iqlim sharoitlarining jihatlarini hisobga olgan holda rangli gammaning garmonik uyg'unlashuvini tanlashga e'tibor bilan yondashishni talab etadi. Rangli tavsiflarni fazoviy kenglik nuqtayi nazaridan his qilishning spetsifikasi fazoviy shaklni qabul qilish jarayonining alohida jihatlarini bilan aniqlanadi. Qabul qilishning o'zi ilgariylanma harakatda – bitta kenglikdan boshqasiga o'tishda va ponoramali ko'rinishda – faqat bitta kenglikni ko'rsatish bilan havola etish orqali ro'y beradi. Ilgarilanma harakatda rangli taassurotlarni navbatma-navbat almashinuvi fazoviy vaqtli munosabatda sodir bo'ladi. Shunday tarzda hosil qilinadigan "rangli uyg'unlashish" qandaydir vaqt davomida oldingi fazoviy kenglik rangining obrazini xotirada saqlash imkoniyati bilan ifodalanadi. Oddiy ranglar aralashgan yoki ularning nyuansli nisbatlariga qaraganda ancha yengil saqlab qolinadi. Ma'lumki, ramziy ranglarning oddiyligiga ularning yaxshi yodda qolish omillari namoyon bo'ladi.

Insonning sun'iy muhitidagi hayotiy faoliyat jarayonlari funksional va ruhiy iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'p sondagi unsurlar qurshovida o'tadi. Xona fazoviy kengligida taqsimlanadigan va joylashadigan bu unsurlar unsurli muhitni

hosil qiladi. Unsurli muhit o'ziga ishlab chiqarish, texnik va informatsion jihozlar hamda mebel va turmushdagi predmetlarni – harorat, xavo almashinuvi, yorug'likning mavjud bo'lishi muhitning zaruriy gigiyenik parametrlari – harorat, havo almashinuvi, yorug'likning mavjud bo'lishi va zarur bo'lgan me'yorda ushlab turilishi bilan bog'liq. Tegishli o'rnatmalar asosiy xonalarga joylashtirilishi va ular interyerga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mebellarning keng nomeklaturasi unsurli muhitning kompozitsiyasi uchun elementlarning asosiy to'plamini tashkil etadi.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida xozir amalga oshiralayotgan badiiy bezash masalasiga katta e'tibor berilmokda. Bu ishlarning barchasi ta'lim-tarbiya ishlariga ijobiy ta'sir etadi. Maktabdagi mavjud badiiy bezash elementlari dekorativ panno, sinf xonalaridagi mebellarning shakllari, doska va devorlarning rangi, bularning xammasi pirovard natijada bolalar psixologiyasiga ma'lum darajada ta'sir kursatadi.

Gullar va boshka dekorativ usimliklar intererda.

Dekorativ amaliy san'atning badiiy bezash ishlaridagi roli.

Maktab intererini badiiy bezashda dekorativ amaliy san'atning yogoch va ganch uymakorligi, nakkoshlik, dekorativ xaykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshka turlaridan foydalaniladi.

Badiiy bezash ishlarida dekorativ amaliy san'at namunasi maktab intereri xarakteriga mos bulishi kerak:

- sinf xonasining vazifasini, unda shugullanadigan ukuvchilarning yosh xususiyatlari va idrok etish kobiliyatlarini xisobga olib yondoshish lozim (masalan, kichik maktab yoshidagi ukuvchilar shugullanadigan rekreatsiyalarda tabiatga, urta yoshdagi ukuvchilar shugullanadigan rekreatsiyalarda uziga xos, yukori sinf ukuvchilari shugullanadigan xonalarda kosmosga, sportga, mexnatga bagishlangan dekorativ pannolar urnatilishi ularga ma'lum darajada ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir kursatadi);



- maktabdagi badiiy bezash ishlarida kullanayotgan dekorativ amaliy san'at elementlari mavsumiy, ya'ni vakti-vakti bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bulishi zarur;

- maktabdagi badiiy bezash ishlarida kullanayotgan dekorativ amaliy san'at elementlari tasviriy san'atning boshka turlari bilan uzviy boglanishi kerak (rang tasvir, xaykaltaroshlik, grafika va arxitektura maktab intererini badiiy bezashda bir-biriga garmonik boglanmasa, xal kiluvchi omil bula olmaydi).

Yukorida ta'kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chikkan xolda ish kurish lozim.

Badiiy bezashda shuningdek keramikadan xam keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, gultuvaklar, vazalar va xokazolar eng avvalo ukuvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda katta yordam beradi.

Shuningdek intererdagi turli mavzudagi stendlar, kurgazmali kurollar, kurgazmalar, bayram va saxna bezaklari uzi bajaradigan vazifasiga muvofik amalga oshiriladi. Ya'ni bajarilayotgan ishlar kim uchun bagishlanganligi, uning yoshi, ongi, bilim darajasi, kasbi-kori va boshka xususiyatlari xisobga olinishi zarur. Shundan kelib chikib bezak ishlarining shakli, ulchami, mazmuni, rangi va xokazolar aniklanadi.



1.2. Binolarni zamonaviy jihozlashda xonadon jihozlarining o'ri.

Xonalarning rejalanişida hududlarni bevosita egallagan yuzalarga xona bo'yicha harakatlanish va boshqa xonalarga o'tish uchun zarur bo'lgan maydon ham ko'zda tutilishi taqozo etiladi. Bu yashash joyi xonalari uchun juda muhimdir, chunki funksional jarayonlarning murakkabligi va turli – tumanligi predmetlarning ko'p sonliligi bilan bog'langan. Ular fazoviy kenglikni “yutib” yuborish mumkin. Buning oqibatida ichki muhitning torligi his qilinadi. Shuning uchun jihozlarni shunday joylashtirish talab etiladiki, bunday joylashtirish funksional jihatdan maqsadga muvofiq bo'lsin va ko'rsih orqali yaxshi qabul qilinsin.

Jihozlarni joylashtirishning har bir varianti fazoviy erkinligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Hozirgi vaqtda xonadon jihozlarining ikkita turi mavjud: ko'chiriladigan jihozlar va qo'shma tarzda quriladigan mebellar.

Ko'chiriladigan jihozlar ichida turli sistemalarga va konstruksiyalarga ega bo'lgan seksiyali jihoz keng tarqalgan. Qo'shma tarzda quriladigan jihoz taxmonning ichiga o'rnatilishi yoki shkaf to'siq ko'rinishida o'rnatilishi mumkin. Yashash xonalari yuzaning 30 – 40 % qismini jihozlar band qiladi. Ishchi joylar bir nechta guruhlariga ajratiladi: uxlash, dam olish, individual ish joylari, madaniy – maishiy ishlar joyi, ovqatlanish joyi, ovqat tayyorlash, shaxsiy gigiyena joyi.

Ishchi joylar bir yoki bir nechta kishilar harakatlanishining xarakterini hisobga ilgan holda qulay harakat qilishlariga mo'ljallanadi, moslashtiriladi hamda jihozlarning joylashish o'ri qanday holatda bo'lishi hisobga olinadi. Vertical guruhlashtirish alohida hajmli predmetlardan foydalanishni hisobga olgan holda odamning fizik o'lchamlariga bo'ysunadi. Bunda jihozlarga yetib boorish imkoniyati ham hisobga olinadi.

Shakl, o'lchamlar va o'zaro joylashtirishga beriladigan me'yoriy tavsiyalardan foydalanish loyihachiga jihozlarni guruhlash variantlarini tahlil qilishda yordam beradi va xonadonlardan ratsional foydalanishni kafotlaydi. Jihoz tayyor seksiyali holatda yoki keyinchalik yig'iladigan alohida

detallardan iborat bo'lishi mumkin. Seksiyali jihozlar yashash

xonalari zamonaviy interyerini

tashkil etishning talablariga to'liq javob beradi; yengil guruhlanadi va ilaning sonly

arkibiga muvofiq keluvchi istalgan jihozlar to'plamini berish mumkin. Interyerdagi turli hududlarni jihozlashda aynan bir xildagi seksiyalardan oydalanish ancha yaxshiroq va qulayroqdir.

Seksiyali jihozning bunday xususiyatga ega bo'lishi ularning alohida universalligi bilan ta'minlanadi. Oddiy qurilmali elementlar bilan bir qatorda ikkita vazifaga ega bo'lgan transformali seksiyalar ham keng qo'llaniladi. Ajratish qurilmasiga ega bo'lgan jihozlar stellar va seksiyalar, ajratiladigan va surib ochiladigan karovatlar, ichkariga yig'iladigan chizish taxtalariga ega bo'lish imkonini beradi. Shkafli to'siqlar – devorlar jihozlarning eng zamonaviy turi hisoblanadi. Ular odatiy tushunchada xizmat qilishi va shu bilan bir qatorda xonadondagi jihozlarning katta qismini o'rnini bosishi mumkin. Qo'shib qurilgan jihozlar xonadonlarning shinamligini oshiradi, yuza va hajmlardan maqsadga muvofiq foydalanishga imkoniyat yaratadi.



Shkafli to'siqlar hududidagi yer ustki qismidan shiftgacha bo'lgan fazoviy bo'shliq foydali sig'im deb hisoblanadi, aynan uning evaziga xonalar ko'chiriladigan mebellardan ozod etiladi. Agar yashash xonalarida pol yuzaning 40 foizini tigi'zi joylashgan jihozlar egallasa, shkafli to'siqlardan foydalaniganda bu ko'rsatkich taxminan 30 foizni tashkil qiladi. Foydali sig'imi hajmi bitta odam uchun 2 metr kavadrat ni tashkil etsa, odatdagi jihozlardan foydalanilganda sa bu ko'rsatkich bitta odam uchun 1,1 metr kvadratni tashkil etadi (3-4 kishilik o'rtacha oilalar).

Shkafli to'siqlarning seksiyalari va bo'limlarining bajaradigan vazifalar
uda xilma-xil bo'lishi mumkin va ular shakfli to'siq o'rnatilgan xonaning
nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi. Bu idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar,
choyshablar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari shkafli to'siqqa ajratuvchi
stellar karovatlarni va xo'jalik ishlariga mo'ljallangan shkafli to'siqlarga
yig'iladigan dazmollash taxtalari, tikuv mashinalari va shunga o'xshashlarni
kiritish mumkin. Qo'shib yig'ilgan jihozlardan foydalanish xonalarni orasta qilish
vaqtlaridagina "qo'l" keladi va xonadondagi bo'sh fazoviy bo'shliqni
kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Shkafli to'siqlarning qo'llanilishi interyer arxitekturasiga sezilarli ta'sir
ko'rsatadi. Xonadonning fazoviy boshlig'idan unumli foydalanish imkonini
yaratadi, ularning qo'llanilishi tufayi xonadonda zarur bo'lgan qulayliklar va
shinamlikni yaratish yengil kechadi. Shakfli to'siqlar alohida seksiyali zanjiri
ko'rinishida bir qatorli hamda ikki qatorli qilinishi mumkin. Xizmat ko'rsatish
xarakteri bo'yicha esa bitta xonaga qaratilgan xolda bir tomonlama va ikki xonaga
xizmat ko'rsatish maqsadida uch va to'rt tomonli shkafli to'siqlar qo'llanilishi ham
mumkin. Bitta shkafli to'siq tarkibida bir tomonlama va ikki tomonlama xizmat
ko'rsatuvchi elementlar qo'shma tarzda bo'lishi ham mumkin. Bunday aralash
turlari juda ko'p va tez-tez uchraydi.

Loyhalashning amaldagi me'yorlariga muvofiq qo'shma tarzda qurilgan
jihozlar elementlaridagi bo'limlar enining quyidagi o'lchamlari qabul qilingan:
kitoblar va idish – tovoqlarni saqlash bo'limining eni 30 sm, xo'jalik predmetlarini
saqlash uchun 45sm, ustki kiyimlar va choyshablar uchun 60 sm. Frontal yo'nalish
bo'yicha qismlarga ajratish qabul qilingan modulga muvofiq tarzda bajariladi.
Shakfli to'siqlar suriluvchi yoki osma yaxlit tabaqalardan, ichki hajm maksimal
ochiladigan oynali bo'lishi mumkin.

Qo'shma tarzda quriladigan shkafli to'siqlar nafaq xonalarning funksional
vazifalariga, balki binoning konstruktiv tizimiga ham bog'qlidir.

Katta bo'lmagan hajmga ega bo'lgan ko'ndalang devorlarda shkafli

markaziy qismidan o'rin egallaydi. Bo'ylama yuk ko'taruvchi devorlar konstruktiv tizimida shkafl to'siqlar yuk ko'taruvchi devorlarda to'siqlar holatida joylashtiriladi. Shkafl to'siqlarning ikkita qo'shilgan uxlash xonalar orasiga

joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir, saqlanish lozim bo'lgan narsalarning katta qismi aynan uxlash xonalariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari shkafl to'siqlarni umumiy xona va oshxona orqasiga joylashtirish xam keng tarqalgan. Bu yerda to'siq elementlari tarkibiga xonalar o'rtasidagi aloqani

ta'minlaydigan eshiklarning oraqlilari ham kiradi. Zamonaviy xonadon jihozlanishida xarakatlanuvchan to'siqlardan keng foydalanilmoqda, ular yordamida xonalarni qayta rejalash mumkin.

Istalgan paytda to'siqlarning o'lchamlarini o'zgartirish yoki ularni to'qli olib tashlash, shu tariqa interyerning fazoviy kompozitsiyasiga ta'sir ko'rsatish mumkin.

Harakatlanuvchi barcha qurilmalarning asosi bu yo'naltiruvchi "yuklar"dir, ular shiftga mahkamlanadi.

Bunday pardevorlar nafaqat to'g'ri chiziq bo'yicha, balki egri chiziqli yo'nalish bo'yicha ham harakatlanishi mumkin: buning uchun "yo'nalishlar"ning tegishli turi ko'zda tutiladi.

O'rama harakatlanuvchi pardevorlar mayda yog'och taxtachalardan yoki polimer materiallardan tayyorlanadi; ular ham gorizontal, ham vertical harakatlanish yo'nalishiga ega bo'ladi. Xonadondagi fazoviy kenglikni qismlarga ajratish vositasi sifatida va to'suvchi qurilmalarning boshqa turlari bilan yug'unlikda xarakatlanuvchi pardevorlardan

xonalarni butun bo'yi va eni bo'yicha to'sishda foydalanish mumkin.



Masalan, bir vaqtning o'zida guruhlashtiriladigan umumiy tekislikni tashkil etgan holda odatdagi harakatlanuvchi pardevorlar birgalikda qo'llanilishi mumkin. Balandlik bo'yicha ham harakatlanuvchi pardevorlar xonaning butun balandligini yoki ma'lum bir qismini egallashi mumkin. U yoki bu usulni tanlash interyerning umumiy arxitekturaviy yechimiga bog'liq bo'ladi.

Konstruksiyasi bo'yicha yengil va oddiy bo'lgan zamonaviy jihozlar harakatlanuvchi pardevorlar bilan uyg'unlikda yashash joyining yetuk funksionla – rejaviy va ancha yuqoribadiiy sifatli interyerlarini tashkil etish imkonini beradi.



II-Bob. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish uslublari.

2.1. Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishda o'qitish metodikasi.

Ma'lumki ta'lim metodlari haqidagi ilm didaktika deb ataladi. Chizmachilik o'qitish metodikasi pedagogik ilmning bir shaxobchasi bo'la turib uning uzi ham ilmiy fan xisoblanadi.

Obektiv olamni bilim jarayoni ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini bilishni taqazo qiladi. Chizmachilik metodikasi o'quvchilarning grafik savodxonligini oshilishda materiallar mazmuni, o'qitish metodlari grafik ishlar bajarishning oqilona metodlari, ta'lim va tarbiyaning mushtarakligini taminlovchi o'qish prosesini tashkil qiluvchi ilmdir.

Chizmachilik metodikasi boshqa fanlar orasida pedagogik ilmning bir soxasi sifatida alohida o'rin tutadi. Chizmachilik metodikasi umumiy va xususiy bo'lib ikkiga bo'linadi.

Chizmachilikning umumiy metodikasi xususiy ta'lim nazariyasi xisoblanadi. Chizmachilikning umumiy metodikasi doirasiga quyidagi masalalar kiradi.

1. Chizmachilik o'qish fani sifatida uning bilim va tarbiyaviy mazmunaviy aniqlash; Chizmachilikning maktab ta'lim tizimidagi o'rnini uning vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari.

2 Chizmachilik bo'yicha ta'lim dasturing asoslash va ta'limning mazmunini ochib berish va tasdiqlash.

3. O'quvchilarda bilim ko'nikma va malakani ta'minlash bo'yicha metodlar va ta'limni tashkil qilish shakllarini ishlab chiqish.

4. Ta'lim-metodik vositalarini tekshirish va tomlangan metodik vositalarni ishlab chiqish.

5. Chizmachilik metodikasi soxasida tekshirish metodlarini ishlab chiqsin: tushunchalar, atamalarni aniqlash, chizmachilik metodikasini boshqa ilmlar bilan

aloqasini aniqlash. Shunday qilib chizmachilik umumiy metodikasini toza pedagogik xodisalarning qonuniyatlarini tekshiradi.

Chizmachilikning xususiy metodikasi alohida maqsad va vazifalarga ega bo'lib, unda umumiy metodikada berilgan qonuniyatlarga asoslanib chizmachilik o'qitishning amaliy tomonlari ya'ni aniq yo'llarini ko'rsatuvchi masalalarni echadi. Chizmachilikning xususiy metodikasida mavzular o'rganishning ketma-ketligi o'quv qo'llanmalari bo'yicha tavsiyalar, mustaqil ishlash uchun grafik vazifalar va mashqlar xajmi beriladi. Chizmachilikni o'qitish jarayoni uning xamma komponentlari bilan bog'liqlikdako'riladi, ya'ni, kursning mazmun, uning masalalari bilan bog'liklikda, o'qitish metodlari, uning mazmuni bilan bog'liklikda, o'qish jarayonini jixozlash va tashkil qilish uning mazmuni va metodlari bilan kurilish zarur.

Chizmachilik umumiy metodikasini vazifasi chizmachilikni o'qish predmeti sifatida o'qitish jarayoni ta'lim nazariyasini ishlab chiqish va qonuniyatlarini ochishdan iboratdir.

Chizmachilik metodikasi didaktika bilan bog'langan chunki chizmachilik o'qitishning unga xos tomonlari ana shu asosda ochib beriladi.,

Didaktikaga nisbatan chizmachilik metodikasida ta'lim nazariyasining xususiy masalalari ko'riladi. Shuning uchun xam chizmachilik metodikasini xususiy didaktika xam deyishadi.

Pedagogika va metodika pedagogika ilmining bir shoxobchasi sifatida psixologiya bilan tiqiz bog'liqdir, chunki chizmachilik o'qitish jarayonini takommilashtirishda injenerik va pedagogik psixologiya qonuniyatlariga asoslanadi. Bular idrok qilish, o'zlashitirish eslab qolish kuzatuvchanlikni va fazoviy tafakkuri rivojlantirish, fazoviy shakllar bo'yicha tasavuri shakllantirish singari psixik jarayonlarda namoyon buladi. O'qituvchi xamma vaqt o'quvchilarga o'tkazayotgan pedagogik ta'sirga o'quvchilardagi javob xarakatini tekshirib borishi va o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritib borish zarur. Ta'lim va metod masalalari va o'quvchilar faoliyatini tekshirib borish, o'quvchilarning psixik faoliyati bilan tiqiz

bog'liqdir. O'z navbatida psixologiya o'quvchilarda grafik bilim, ko'nikma va malaka shakllanishi jarayonida kuzatishlar orqali olingan natijalarga tayanadi

Metodika bilan psixologiya, uning didaktika bilan bog'likligi singari o'zaro aloqada bo'ladi.

Chizmachilik metodikasi ayni vaqtda chizmachilikning nazariy asosi bo'lgan chizma geometriya bilan davomi orqasida bilan aloqada bo'lishi zarur, chunki mavzularni o'tish metodikasini ishlab chiqish jaryonida nazariy asoslarni chetlab o'tib bo'lmaydi.

O'qitish prosessini takomillashtirish va samarador o'qitish metodlarini yaratish uchun maxsus ilmiy tekshirish shakllari olib boriladi.

Chizmachilik metodikasi o'quv ishlari yo'llarini shakllantirish jarayonini tekshirish bilan bir qator o'quvchilarning grafik ishlarni bajarish jarayoyaidagi xarakat malakalarining shakllanishiga jarayonini tekshirish muxim ahamiyatiga ega.

Tekshirishlardagi kuzatishlardan shu narsa ma'lumki chizmachilikni endi boshlagan o'quvchilarda chizmani bajarishda katta xarakat kuchi talab qilinadi. Shuning uchun chizmani bajarish vaqtidagi o'quvchining xarakat usullarini ishlab chiqish katta ahamiyatiga ega.

Grafik xarakatlarni tekshirishning keng tirqalgan qsullari quyidagilardir: giklografiya xarakat kinematikasini qayd etish:

genzometriya va pe'zometriya nur sarf qilsh yoki qurish darajasini qayd etish, xronomertaj vaqtni qayd etish;

okulografiya- ko'rish idroki jarayonida ko'z xarajatini qayd etish;

multipikatsiyalash- grafik tasvirlarning loxida elementlarini chizilish ketma-ketligini qayd etish.

Xozirgi zamon darsidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri o'quvchilarni ijodiy fikr yuritishga o'rgatishdan iboratdir. O'qitish metodikasini takomillashtirishi muammolari o'qitishiing eng samarali ish metod va usullarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish va

o'quvchilarda chizmalarni o'qish va bajarish jarayonida fazoviy tasavvurlar xrsil qilish bilan bogliqdir.

O'quvchilarning grafikaviy tayyorgarligining takomillashuvi so'nggi yillarda olgan surilgan ilg'or g'oyalar asosida ta'limni qayta qurishning qanchalik tez va muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Maktablarimizda hozir yangi dastur yaratildi, darsni yaratish ustida olimlar ish olib bormoqdalar. Endi esa o'qitish metodini takomillashtirish asosiy masalalaridan biridir. Bu iunalishdagi izlanishlarning zarurligi, birinchidan zamon darsiga, o'qituvchilarning ilmiy metodik tayyorgorligiga bo'lgan talablarning ortib borganligidan bo'lsa, ikkinchidagi sunggi yillarda metodiga erishgan yangiliklarni didaktik nuqtani nazardan o'qituvchilarning baqolay olishiga bo'lgan talabning ortib borishidir.

Hozirgi kunda chizmachilikning yangi dasturning yaratilishi bilan bir qatorda o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish yo'llarini izlash soxasida xam tinimsiz ilmiy va uslubliy ishlar qilinmodda. O'qitish metodlarini takomillashtirish va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish yullarini aniqlash bilan boqliq. Bu vazifa amalga oshirishdao'quvchilarningo'quv faoliyatini tuqri tashkil etish, ularda grafikaviy faoliyatning raqional usullarini tarkib toptirish muxim rol uynaydi. Bu esa o'qituvchidan katta pedagogik maxrrat talab qiladi. O'qituvchilarning pedagogik maxrratini ularning yangi ish formalariga jalb qilish orqali, taglimning eng samarali metodik usullarini aniqlash va ularni amalda sinab kurish orqali oshirish mumkin.

Keyingi yillarda o'qituvchilaro'quvchilarningtarqatma topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlarini tashkil qilish.o'quvchilarningo'quv faoliyatini aktivlashtirish va ularni ijodiy masalalarni qal qilishga jalb etish soxasida juda boy taxushba erishdilar.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning' tafakkurini rivojlantirish soxasida qilinadigan ishlarni yanada takomillashtirishda o'quvchilarning o'quv ishlarini raqional tashkyl qilish bilan bogliqdir. Bu o'quvchilarni faqat bilimlar sistemasi

bilan ta'minlab qolmay, balki ularda fikrlash faoliyatining turli grafik masalalarni echish bilan boqliq bo'lgan raqional usullarni shakllantirish kerak.

Metodika va pedagogik psixologiyada o'quv imlarining eng asosiy usullarini tanlashga katta ahamiyat berilmoqda, o'quvchilar bu usullar yordamida keng tarqalgan topshiriqlarni echish, chizmani taxlil qilish va o'qish kabi usullardan foydalanmoqdalar.

O'quvchilarning aqliy faoliyatini aktivlash qirishga graifk ishlar ikki tomondan tag.sir qiladi. Bir tomondan, o'quvchilarning tasviriy tafakkurining rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa mantiqiy tavakkurning rivojlanishiga bog'liqdir.



Chizmachilikni o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasviriy tafakkurining va fazoviy tasavvurlarining rivojlanishiga ahamiyat berilmoqda.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tasavvurlarning turli xil kurinishlarini, har xil buyumlarni, buyumlar bilan tasvirlarni va xakazolarni, ularning muximbo'lmagan belgilarini ajratysh va xarama-xarshi asosida taqqoslash usullari, yangi materialni bayon qilishda indukdiya bilan birlashtirish masalalari ustida ishlashga to'g'ri keladi.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida chizmachilikni o'qitishning asosiy masalalarydan biri, o'quvchilarda fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishdir u siz fazoviy shakllarni tasavvur qilish bilan bog'liq bo'lgan oddiy texnik chizmalarni

o'qish va tuzish qiyindir. Fazoviy shakllarni tasavvur qilishning etarli darajada rivojlanmaganligi tufayli oliy texnika o'quv yurtlariga kirgan o'quvchilarni o'qitish va ularni o'rgatish ancha murakkabdir.

Chizmachilik darslarida fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish quyidagi mazmunda, bo'lishi mumkin: birinchidan, biror buyumning chizmasini yasashga doir va uning berilgan chizmasini o'qishga doir topshirishni bajarishda ularga tanish bo'lgan buyumning geometrik shaklini fikran aniq tasavvur qilabilish qobiliyatini rivojlantirish;

Ikkinchidan, fazoviy tasavvurlar zapasini kengaytirish, ularni mustahkam va sistemaga keltirish.

Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish bilan chizmachilik o'qitishning yana bir muxim masalasi o'quvchilarning fazoviy tasavvurlariqi rivojlantirish masalasi. Chizmachilikdan o'quv topishriqlarini bajarish davomida fazoviy tasavvurlarning t'oplangan zapaslari asosida ya'ngi fazoviy obrazlarni tasavvur faroviy tasanvur qilish qobiliyati etarli rivojlanmagan taqdirda biror narsani grafik ravishda tuliq tasvirlash mumkin eias, chizmachilik texnikasiga o'qitish ishga xech qanday yordam beraolmaydi. Shakllarni tasavvur qilish va ifodalash vositadi bo'lgan grafik tasvir va aql faoliyati bir-biri bilan nutq fikriga qanday munosabatda bo'lsa shunday munosabatda bo'ladi, ya'ni agar fikr bo'lmasa, hech qanday notiqlik yordam bermaydi. Chizmalarni o'qish jarayonida ikkita masala quyilishi mumkin:

- 1) tasvirlangan buyumning shaklini aniqlash
- 2) texnik va texnologik xarakterdagi ma'lumotlarni ochish.

O'rta maktablarda fazoviy tushunga va fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish bilan bogliq bo'lgan ishning ketma-ketligini taqlil qilish zarur.

Chizmaning rivojlanish tarixiga qisqacha sharx. Chizmachilik fanining uqitilishiga XVIII asrda asos solingan, lekin VII-IX asrlarda Turkiston diyorida qurilish inshootlarning yuksalishi jihatdan Sharq mamlakatlari ichida yagona edi, Abu Rayxon Beruniy «turarjoylar orasidagi oraliqni belgilash joylarning chegaralarini aniqlash», ya'ni geodaziya degan yirik kitobni 1000 yilda yozib

tugatganlar va boshqalardir, shundan ham ko'rinib turibdiki chizmachilik fani o'rta Osiyoda VII-asrdan boshlab rivoj topgan.

1930 yilda chizmachilik bo'yicha yangi dastur ishlab chiqildi, bunda o'quvchilarning grafik tayyorgarligini yaxshilash yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

1932 yilda boshlab chizmachilik mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Ishlab chixarishning o'sishi munosabati bilan 1945-53 yillardagi dasturlar o'z mazmuni va yunalishi bo'yicha oldingi yillardagi dasturlardan tubdan farq qildi.

1954 yilda tasdiqlangan chizmachilik bo'yicha tasdiqlangan dastur, chizmachilik fanini amalda o'rganishga imkoniyatlar yaratildi, shu yildan boshlab chizmachilik fani mustaqil fan bulib, uning urni etuklik attestatda kamol topdi, (yavni uning baqosi etuklik attestadda quyiladigan buldi). Unga yillarda chizmachilik fani o'rta maktabda 7. 8, 9 va 10 sinflarda mustaqil fan sifatida uqitila boshladi

Chizmalarni rivojlanish tarixini plakatlar orqa; qizixarli qilib bajarib berish lozim chizmalar eng zarur tasvirlar hisoblanadi; bizning zamonimizda chizmalaro binolar, gidrotexnikaviy inshootlar, mashina yo'l mexanizmlarning hotgo kichik detallarini ham tayyorlb bo'lmaydi, shuning uchun xam chizma texnika tili «deb bej) aytilmagan.



2.2. Tajriba sinov ishlari va uni o'tkazish metodikasi.

Tajriba–sinov ishlarida 9-sinf chizmachilik darslarida binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish ishlari olib borildi. Tajriba-

sinov ishlarini amalga oshirish uchun biz Sirdaryo viloyat Guliston shahar 16-maktabning 9-sinf o'quvchilaridan ikkitasini tanlab oldik. Keyin ularni sinov guruhi hamda nazorat guruhlariga bo'lib, sinov guruhi qilib G'aniyev Alisherning 9 "A" sinfini, nazorat guruhi qilib esa Xalimov Sobirning 9 "B" sinfini oldik. Sinov guruhida darslar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan dars ishlanmalari asosida olib borilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida an'anaviy uslubda o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishning dastlabki izlanuvchan bosqichida o'quvchilarning zamonaviy jihozlash va interyer ishlari to'g'risidagi bilimlari borligini so'rab bilish va olingan natijalarni tahlil qilib, ular bilan ishlash yo'nalishini belgilab olishni maqsad qilib qo'ydik.

Mazkur metod orqali nafaqat zamonaviy jihozlash va interyer ishlash haqida balki boshqa narsalarga qiziqishlar darajalariga e'tibor berildi.

Jadval 1.1.

Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi

№	Tajriba-sinov maydonlari	Maktab №	Sinflar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	O'quvchilar soni
	Guliston shahar	16-maktab	9 "A" sinf	29		29
			9 "B" sinf		28	28
	Jami		2 ta sinf	29	28	57

Tajriba-sinov ishlarining izlanuvchan va ta'kidlovchi bosqichlarida Guliston shahar 16- umumiy o'rta ta'lim maktabining chizmachilik darslarida 9 sinf o'quvchilarining binolarni zamonaviy jihozlash hamda interyer ishlashga oid bilimlari tekshirib ko'rildi. Bunda shu narsa aniq bo'ldiki, **I-daraja** – zamonaviy jihozlash hamda interyer ishlash xaqidagi bilim darajasi sust bo'lgan o'quvchilar. Ular zamonaviy jihozlash hamda interyer ishlash to'g'risida tor doirada ma'lumotga egadirlar.

II-daraja – o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchilar. Bu guruhga kiruvchi

o'quvchilar zamonaviy jihozlash va interyer ishlash to'g'risida tushunchaga ega, biroq ular o'z shaxsiy sifatlari va bilim darajasiga javob beruvchi aniq shakllangan bilimlar doirasini belgilab olmagan. Shu sababli ularda muayyan fazoviy tasavvurlarini, grafik asoslarini idrok qilish, zamonaviy jihozlash hamda interyer ishlash mavzulariga qiziqish davriy xususiyatga ega bo'ladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi.

№	Maktab	Sinflar	O'quvchilar soni	Aniq BKM soni	100%	90-99%	80-89%	70-79%	70% past	Umumiy %	Samaradorlik
	16 - maktab	4 "A"	29	15	3	6	9	10	-		
		4 "B"	28	15	1	4	10	6	7		
	JAMI	2 ta	57	15	4	10	19	16	7		

Tajriba sinov ishlari natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, sinov guruhida nazorat guruhiga qaraganda samaradorlik ancha ortdi. Tajriba sinov ishlarida biz 100 ballik baholash tizimidan foydalandik. Jumladan 9 "A" sinf o'quvchilaridan 3 nafari 100 foiz ya'ni a'lo baho olgan bo'lsa, 6-nafari 90-99 foizgacha, 9 nafari 80-89 foiz, 10 nafari 70-79 foiz ball olishga muvaffaq bo'lgan. 9 "B" sinf o'quvchilarida esa 1 nafari 100 foiz ya'ni a'lo baho olgan bo'lsa, 4-nafari 90-99 foizgacha, 10 nafari 80-89 foiz, 6 nafari 70-79 foiz ball, 7 nafari 70 % past ball olishgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida dars berayotgan o'qituvchi didaktik o'yinlar, topishmoqlar, boshqotirmalar, testlardan darsning istagan vaqtida foydalanishi mumkin. Bu esa o'quvchilarni izlanuvchanlikka, topqirlikka undaydi. Sinfda darsga bye'tibor o'quvchi qolmaydi. Dars jarayonida o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Dars markazida o'quvci faoliyati yotadi. O'qituvchi esa yo'naltiruvchi, maslahatchi vazifasiga o'tadi. Bunda o'qituvchi

muammoli topshiriqlar berib, o'quvchini ana shunday vaziyatlarni hal qilishga o'rgatadi va buning natijasida o'quvchiga yangi mavzu ma'lumotlarini berib boradi.



Chizmachilik darslarida belgilangan darsning taqvimiy mavzuli va tasvirli rejasi tuziladi. Unda mavzu nomi, maqsadi va vazifalari (ta'limiy, tarbiyaviy va estetik) tur va metodi. jixozi, qo'llaniladigan kursatmali kurol va texnik vositalardan tanlangan dars turiga mos bosqichlar, dars xulosasining taxlili (yakuniy xulosa, umumlashtirish. tekshirish uchun savollar) uyga vazifa va kerakli maslaqatlar kursatiladi.

Darsning mazmuni ana shu reja asosida tuziladi. Bunda yangi materialni tushuntirish, kursatmali kurol, texnik vosita va undan foydalanish usullariga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek sinf doskasidan kandy foydalanish tasvirni chizmani sinf doskasida joylashuvining grafik rejasi kursatiladi. qamda muammoli vaziyat yaratish, ayrim fikr-muloqazalar yozib kursatiladi. foydalanilgan asosiy kushimcha adabiyot ro'yxati kursatiladi.

Chizmachilik darslarida o'qituvchining urni va unga quyiladigan talab xamda chizmachilikka qiziqishni tarbiyalash va rivojlantirish. Texnikaviy ijodiyotga bo'lgan qiziqishni ustirish chizmachilik darslarida texnikaviy atamalar ogzaki tagrif va ifodalar tushuntiriladi.

Chizmachilikni testlashtirib o'qitishning ba'zi masalalari tushuntiradi. O'qituvchilarning asl maqsadi o'quvchilarda o'quv istagini va shaxsidagi ijodkorlikni shaklantirib, ularni barcha darslarda faol bo'lishga jalb qilish, ta'limga bo'lgan qiziqish va mustaqillik tuyg'usini uyg'otishdir. Chizmachilik darslarida o'qituvchi ishlash jarayonida o'ylashga, yangi o'qish vositalarini o'ylab topishga,

ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etishga, ijod qilishga to'g'ri keladi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, biz quyida tajriba sinov ishlarimizda foydalangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yozilgan bir soatlik dars ishlanmasidan namuna keltiramiz.

Sana: 08.04.2014-yil

Sinf: 9

Mavzu: Turar joy binolari interyeri va jixozlari

Maqsad:

Ta'limiy: O'quvchilarga Turar joy binolari interyeri va jixozlarining ahamiyati va mohiyati haqida bilimlar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish va ularda estetik zavq uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning uslubi: ko'rgazmali - amaliy

Dars usuli: Noan'anaviy (aqliy hujum, tezkor savol-javob)

Dars tipi: yangi bilim berish

Dars shakli: individual va kichik guruhlarda ishlash

Dars didaktikasi:

a) **Jihozi:** yozuv taxtasi, 9-sinf chizmachilik darsligi, tarqatma chizma materiallar, tezkor savol-javob kartochkalari va plakatlar

b) **Texnik vositalari:** kompyuter, proyektor, video ko'z, kadoskop;

Darsning blok sxemasi:

№	Dars bosqichlari	Vaqt taqsimoti
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	O'tilgan mavzui takrorlash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	20 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	11 daqiqa

5	Yakuniy qism: Oquvchilarni baholash a) Uyga vazifa berish	4 daqiqa
---	--	----------

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- a) Psixologik iqlim yaratish (o`quvchilar bilan salomlashish, o`quvchilar va sinfning darsga tayyorgarligini aniqlash, navbatchini tayinlash va davomatni aniqlash).
- b) Dars mavzusi va dars ahamiyatini e`lon qilish
- c) BKMLarni e`lon qilish
- d) O`quvchilarni guruhlariga ajratish; (1,2,3)
- e) “Oltin qoidalar” ni ishlab chiqish:
 - O`zaro hurmat;
 - O`zgalar fikrini hurmat qilish;
 - Intizomlilik;
 - Topqirlik;
 - Hozirjavoblilik;
- i) **Baholash mezonlari haqida tushuncha berish** (“Ofarin”, “Barakallo”, “Harakat qil” so`zlari yozilgan shakllar);



Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida bellashuv tashkil etiladi, bunda sinf o`quvchilari uch guruhga ajratib olinadi. Shatranj taxtasida qirqim talab

qiladigan detal chizmalar beriladi, qaysi guruh oquvchilari detal qirqimlarini eng ko'p va tez bajarsa usha guruh g'olib sanaladi.

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	12
13	14	15	16

O'tilgan mavzu yuzasidan savollar yozilgan kartochkalar guruhlarga tarqatiladi.

1. Qirqim deb nimaga aytiladi?
2. Qirqim qo'llashdan maqsad?
3. Kesim turlari nechta va qaysilar?
4. Qirqimlarni belgilash qanday amalga oshiriladi?
5. Qirqim kesimdan qanday farqlanadi?
6. Kesim yuzasi kichik bo'lgan joylar qanday belgilanadi?
7. Kesilgan joy yuzasi qanday belgilanadi?
8. Kesim deb nimaga aytiladi?
9. Kesim chizig'i va yo'nalishni ko'rsatuvchi strelkalar o'lchami?

O'quvchilarning kartochkalardagi savollarga qay darajada izoh berganliklariga qarab “**Ofarin**”, “**Barakallo**”, “**Harakat qil**” so'zlari yozilgan shakllardan tegishlisi taqdim etiladi.

O'qituvchi tomonidan o'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi, nazariya va amaliyot birligi qay darajada uyg'unlashganligini tahlil qilish maqsadida qirqim talab qiladigan chizmalar (AutoCAD dasturida chizilgan) slayd orqali taqdim etiladi va berilgan chizma-topshiriq o'quvchilar tomonidan bajariladi.

Yangi mavzu bayoni: Turar joy binolari interyeri va jixozlari

(O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirish davomida, Microsoft Office dasturlar to'plamining Power Point dasturida tayyorlangan slayd, audio va video vositalaridan foydalangan holda mavzu bayon etiladi. Quyida dars davomida namoyish etiladigan slayddagi rasmlardan namunalar namoyish etiladi.)

Turar - joy, jamoat va sanoat binolari intereri "ichki ko'rinishi" va jixozlanishi turli tipdagi turar-joy, jamoat va sanoat binolarini ularning nimaga mo'ljallanganligiga qarab ichki tashkiliy fazoviy shakllantirishining o'ziga xosligini, shuningdek turli funksional, texnologik asbob-uskunalar (mebel, oshxona, sanitariya - texnik asbob-uskunalar, sun'iy yoritish elementlari va boshqalar)ni ishlab chiqish, binolarning yorug'lik va rangli mikro iqlimi, yashash, mehnat qilish va dam olish uchun yoqimli muxit yaratishini o'rganishdan iboratdir.

"Turar-joy, jamoat va sanoat binolari intereri (ichki kurinish) va jixozlanishi mavzusini o'rgatishdan asosiy maqsad loyixalashtirish asoslarini ochish va o'rganish, ichki tashkil qilingan muxit va uning xar-xil tarkibini yaratish xisoblanadi.

Turar joy muxitini xajmiy rejali ko'rinishining asoslari, uni jixozlash, tabiiy-muxit, xududiy, milliy va xalqona o'ziga xosliklar majmuaga bog'lik xolda ichki maydon yaratish asosida yorug'ga qarab chiqiladi.

Ketma-ket imoratini xar bir xonasining: daxliz, vanna, oshxona, sanitariya tarmogi, umumiy xona, mehnatxona, yotoqxona, bolalar xonasi, kabinet va boshqalarning maydoni va jixozlanish masalalari ko'rib chiqiladi va o'rganiladi.

Turli imorat xonadonlarining funksional jihatdan maqsadga muvofiq-badiiy estetik jihatdan go'zalligi, mebellarni qulayligi, jixozlanishi va elementlar turar-joy binolarining intereri va jixozlanishi bo'yicha o'tilayotgan mavzuning yakunlovchi bosqichi sifatida loyixalashtirishning asoslaridan birida shakllantiriladi.

Binolarning intereri (ichki ko'rinishi) va jixozlanishi mavzusi haqida gap ketganda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

1. Inson kuli bilan uzining xayot faoliyati uchun yaratilgan tashkiliy maydon, material muxit sifatida arxitektura ta'rifi;
 2. Ichki tashkiliy maydon sifatida "Ichki kurinish" tushunchasini ta'rifi;
 3. Intererning "INTERER" kishilarning estetik va goyaviy jixatdan tarbiyalash vositasi sifatidagi tarbiyaviy axamiyati. Axolining ularni urab turgan material atrof-muxit asosida estetik didlarning rivojlantirish va oshirish;
 4. Arxitektor axolida estetik yaxshi didni rivojlantiruvchi doimiy targ'ibotga bo'lishi kerak;
 5. Binoning umumiy kompozitsiyada ichki kurinishning axamiyati va uning kuriltoshining tashki arxitekturasini bilan aloqasi.
 6. Ichki maydon ichki kurinish binoning nimaga muljallanganligiga boglik ravishda tashkil kilinadi.
- Ko'rilishning g'oyaviy mazmuni va uning funksional o'ziga xosligining ichki ko'rinishi vositasida ifodalanishi.

Uyga vazifa: O'tilgan mavzu yuzasidan uyda mustaqil ravishda A3 formatga interyer bajarib kelish

Xulosa va ilmiy metodik tavsiyalar:

“Zamonaviy jihozlar va interyer” predmeti inson va jamoa faoliyati o'tadigan binoning ichki kengligini estetik tashkil etishning qonuniyatlarini ochib beradigan asosiy savollar majmuyini o'z ichiga oladi. Bunda shuni alohida ta'kidlash muhimki, agar turar joy, jamoat va sanoat binolari tipologik xarakteristikalarining chegaraviy holatlariga ega bo'lsa, u holda xonalarning funksional jihatlari, tabiiy iqlimiy sharoitlar, aholi turli etnik guruhlarining har xil

urf-odatlari, milliy va mahalliy an'analari, ijrochilar va buyurtmachilarning didlari hamda boshqa ko'plab faktorlar bilan belgilanadigan jihozlar tizimi, stilli yo'naltiriganlik, badiiy bezaklar bilan pardozlashning o'zaro ta'sirlashuvi orqali yechiladigan ichki fazoviy kenglikni tashkil etishning kompozitsion variantlari amaliy jihatdan juda xilma-xil va juda ko'p bo'lishi mumkin. Bunday variantlarning ichida interyerning muvaffaqiyatli variantlari bilan bir qatorda kamroq muvaffaqiyatli variantlari bilan bir qatorda kamroq muvaffaqiyatga ega bo'lgan variantlarni ham topish mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, interyer tashkil qilishning yuqori sifatiga erishish asosida ularni qurish qonuniyatlari va uslublarining prinsipial asoslarini chuqur bilishga asoslangan oqilona yondashuvi yotadi. "Zamonaviy jihozlar va interyer" predmeti shunday bosh nazariy baza deb ham hisoblanadiki, uning asosida bo'lajak arxitektorlarda ular egallashi zarur bo'lgan bilimlar majmuasi, saviyalar va professional intuitsiya shakllanadi. Bu bilimlar arxitektorlarda binolar interyerini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijodiy masalalarni yuqori sifatda yechish imkonini beradi.

Unda ketma-ket tarzda interyerning o'ziga xos tasniflari, turli funksional vazifalar bajaradigan xonalarda interyerni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va uni loyihalashning uslubiy asoslari ochilib boriladi. Interyer badiiy individualligining diapozoni juda keng va u quriladigan obyektning qurilish joyi va avqti bilan belgilanadigan konkret sharoitlarga bog'liqdir. Binoning interyeri arxitekturaviy muhit turlaridan biri sifatida tashqi shaklga yondashishda birmuncha mustaqilikka ega. Muhit tushunchasi asosida yotadigan fazoviylik mohiyati "interyer" tushunchasiga, ya'ni inson faoliyatining ma'lum bir turi uchun mo'ljallangan chegaraviy kenglikka bevosita aloqadordir. Amalga oshiriladigan faoliyatning xarakteri va faoliyat jarayonida muhitning estetik nuqtayi nazardan muvofiq tarzda qabul qilinishi interyerning badiiy mazmuni va kompozitsion tashkil etilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yerda turar joy, jamoat va sanoat binolari arxiteturasi haqida obrazli tasavvurlarning haqiqiy adekvatligi tug'iladi. Interyerning inson ruhiy holatiga faol ta'sir ko'rsatishi uning eng muhim

xossalaridan biri hisoblanadi. Muvofiq keluvchi holatning yoki rangli gammaning tanlanishi inson ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hayotiy-faoliyat jarayonini tezlashtirilishi, inson kayfiyatini yaxshilashi, uyg'otuvchan ta'sir ko'rsatishi va aksincha, yuqoridagilarga qarama-qarshi bo'lgan holatlarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Tashkil etilgan ochiq kengliklar (hovli, maydon) ga erkin holatdagi tabiat peyzajlarini faol kiritish yo'lidan tashqari maxsus rejaviy usullarni qo'llash orqali ham ichki kenglikni organik tarzda davom ettirish (kengaytirish) mumkin. Arxitektorning ijodiy anglashi orqali tug'iladigan har qanday g'oya qat'iy ravishda uning tomonidan ishlab chiqilgan loyihada aks ettirilmog'i lozim. Bu avvalambor, grafik tasvirlashga va g'oya muallifining fikrlarini aniq aks ettirish imkonini beradigan kompozitsion uslublarga tegishlidir. Loyiha tarkibiga va loyiha materialiga umumiy tarzda kiritiladigan ko'rsatmalar, talablar va tavsiylardan doimo foydalaniladi. Biroq, har bir konkret holda interyerlarni loyihaviy ishlab chiqishning metodikasi o'ziga xos spetsifik jihatlarga egadir. Ushbu bitiruv malakaviy ishning maxsus bo'limida bino va inshootlar interyerlarini loyihalashning hamma jihatlari batafsil ko'rib chiqiladi, ularning mukammal o'zlashtirilishi bo'lajak arxitektorlarni zaruriy bilim va saviyalar hamda kasbiy intuitsiya bilan qurollantiriladi, egallagan bu bilimlar ularga o'zlarining ijodiy faoliyatida uchraydigan masalalarni yechishda yordam beradi.

Yuqoridagi barcha fikr mulohazalardan kelib chiqib biz bitiruv malakaviy ish yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik.

1.Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning maqsad vazifalari ishlab chiqildi.

2.Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning mazmun va mohiyati yoritib berildi.

3.Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida o'quvchilarni mashg'ulotlar jarayonida binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish usullari ishlab chiqildi

4.Tajriba-sinov ishlarida barcha o'quvchilarning binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarish to'g'risidagi ma'lumotlari tekshirib borildi.

Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

- zamonaviy talablar va fan-texnika taraqqiyotidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning o'z kasbini ongli ravishda to'g'ri belgilash va shu asosda tegishli bilimlarni puxta egallashlariga erishish.

- chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning samarali tizimini yaratish.

- Chizmachilik darslarida yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarni yoshlarda sog'lom turmush tarzi va har tomonlama barkamol etib shakllanishiga ta'sir etuvchi zararli illatlardan saqlash.

O'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida kasb-hunarni ongli ravishda tanlashi uzluksiz ta'lim tizimida jamiyat talabiga mos, raqobatbardosh kasb egasi hamda har tomonlama etuk kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni ongli kasb-hunarga yo'naltirish va hayot jarayoniga tayyorlashni takomillashtirish uchun o'tkazilgan tadqiqot ishi pedagogik, psixologik, metodik, tashkiliy imkoniyatlarini yoritishga bo'lgan dastlabki urinishlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida".-T.: O'qituvchi. 2012.
2. Karimov I. 2012 yil "Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi".-T.: O'zbekiston. 2012.
3. Karimov I. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari".-T.: O'zbekiston. 2009.

4. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch".-T.: O'qituvchi. 2008.
5. Karimov I. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda".-T.: O'zbekiston. 1999.
6. Karimov I. "O'zbekiston buyuk kelajak sari".-T.: O'zbekiston. 1998.
7. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori": O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq. 1997.
8. Akbarov A. "Chizma geometriya va muxandislik grafikasi". Toshkent, 2004.
9. Abduraxmonov A., B.Nig'monov., F.Jumaboeva., D.Abduraxmonova. Chizma geometriya I-qism, TDPU Rizografi, 2007.
10. Abduraxmonov A., B.Nig'monov., J.Nasriddinov., B.Abduxonov. "Chizma geometriya II-qism", TDPU Rizografi, 2008.
11. Alekseev B.I., Verjbinskiy B. Inteyeri obedennogo zala v predpriyatiyax obshestvennogo pitaniya. V kn: "interyeri obshestvennix zdaniy" Gosstroyizdat. 1963
12. Arxangelskaya Z. "Interyeri predpriyatiy xozyastvenno – bitovogo obslujivaniya". V kn: "interyeri obshestvennix zdaniy" Gosstroyizdat. 1963
13. Bogdanov N. "Interyeri magazinov i ix oborudovaniye. Stroyizdat". 1967
14. Buxman G., Vorones L. "Interyer I proyektirovaniye osvesheniya". Kiyev, 1965
15. Valiev A. va boshqalar. "Chizma geometriya (MSB "Mehnat" ta'lim yo'nalishi uchun sessiya oralig'i vazifalari), Metodik qo'llanma", TDPU "Rizograf"i Toshkent-2005
16. Yodgorov J., Odilov P., Narzullaev S. Chizma geometriya (o'quv qo'llanma), Toshkent, «O'qituvchi», 1991.
17. Ismatullaev R.K. "Chizma geometriya" (Muvofiqlashtiruvchi kengash tavsiyasi bilan). Toshkent, TDPU "Rizograf"i 2003, 2005.
18. Ismatullaev R., Xoshimova X. "Chizma geometriya". Toshkent. 2005.

19. Ismatullaev R., Valiev A. “Chizma geometriya“ (maxsus sirtqi bo’lim talabalari uchun grafik topshiriklar bo’yicha metodik qo’llanma), TDPU “Rizograf”i, Toshkent, 2002
20. Ismatullaev.R Valiev A. “Chizma geometriya“ (grafik topshiriqlar va metodik ko’rsatmalar) Metodik qo’llanma TDPU “Rizograf”i Toshkent-2005
21. Murodov Sh.K. va boshqalar. “Chizma geometriya kursi“. Toshkent. «Iqtisod-moliya», 2006.
22. Odilov P., Ismatullaev R. “Chizma geometriya“. (ma’ruzalar matni 1 qism). Toshkent, TDPU “Rizograf”i 2000.
23. Odilov P., Ismatullaev R. “Chizma geometriya“. (ma’ruzalar matni 2 qism). Toshkent, TDPU “Rizograf”i. 2000.
24. Ustinov A. “Svet v arxitekture promishlennix zdaniyaniya“ 1986
25. Hidoyatov T.A., Kadirova S.A., Abdurahmonov. Y.I. “Zamonaviy jihozlash va interyer“ - Toshkent, O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2012
26. R. Xasanov “Maktabda Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” – T : 2004yil
27. R. Xasanov “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” – T : 2004yil

Internet ma’lumotlari

1. [http :G’G’ www. Uz](http://G’G’www.Uz)
2. [http: G’G’ www. ziyonet. Uz](http://G’G’www.ziyonet.Uz)
3. [http :G’G’ www. google.uz](http://G’G’www.google.uz)
4. [http : G’G’ www. san’at.uz](http://G’G’www.san’at.uz)
5. [http : G’G’ www.nbgf.intal.uz](http://G’G’www.nbgf.intal.uz)

Ilovalar.

Taqriz

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi 23 yil mobaynida mamlakatimizda boshqa sohalar qatori qurilishda ham juda katta yutuqlarga erishildi. Ko'plab hashamatli binolar, sport saroylari, yopiq bozorlar, zamonaviy ko'cha va maydonlar, hiyobonlar va bog'lar, turar-joy binolari, kollejlari, litseylar va boshqa qurilgan imoratlar qurilish va arxitektura sohasidagi ishlarning ko'lamidan dalolat berib turibdi. Bugungi kunda arxitektura ijtimoiy-iqtisodiy, estetik, demografik va ko'p asrlik tarixiy madaniyat an'analarining birligini tiklamoqda.

Binoning ichki ko'rinishining tasviri **interer** deb ataladi. Rangtasvir va grafikada interer tasvirlari ko'plab ishlangan.

Arxitekturaning alohida ichki fragmentlari va vaziyatlari Qadimgi Misr va antik san'atda uchraydi. Eramizdan avvalgi birinchi asrlardayoq Pompey freskalari bizga ajoyib, butunlay fantastik perspektivaga asoslangan tasvirli arxitektura kompozitsiyalarini namoyon etadilar.

Bitiruvchi D.Otajonovning bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va ilmiy metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilova qismlaridan iborat bo'lib, u amaldagi nizomlar asosida yozilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatishning metodik asoslariga to'xtalib o'tgan.

Ikkinchi bobda esa Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish uslublarini yoritib o'tilgan.

Bitiruvchi o'z bitiruv malakaviy ishida ba'zi bir punktatsion va stilistik xatolarga o'yl qo'ygan bo'lsa-da, bu narsa ishning ilmiy qiymatiga unchalik ham ta'sir qilmaydi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, bitiruvchi D.Otajonovning ***“Chizmachilik darslarida o'quvchilarga binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish”*** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman va davlat attestatsiya komissiyasidan a'lo bahoga baholashlarini so'rayman.

Guliston shahar I.M.va S.M internati
tasviriy san'at o'qituvchisi

J. G'afurof

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti 4 –bosqich talabasi Otajonov
Do'stimbek Avazovich tomonidan 5110800 – Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun ***“Chizmachilik darslarida o'quvchilarga
binolarni zamonaviy jihozlash va in'teryer ishlarini bajarishga o'rgatish”*** mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishga

Taqriz

Interyer – tashkil etilgan fazoviy kenglik sifatida faqat arxitekturaning ajralmas qismi bo'libgina qolmasdan, balki uni arxitekturaning boshlang'ich asosi deb ham atashadi. Tarixiy tarzda to'planga tajriba va hozirgi vaqtdagi voqelikning guvohlik berishiga ko'ra interyerning yechimi avval ham, bundan keyin ham arxitekturaviy faoliyatning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi. O'ziga xos ichki muhitni yaratishda turli profilda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar – texnologdan boshlab rassom va dizaynerni o'z tarkibiga birlashtirishdek vazifani bajarishda yetakchilik qilish roli interyerga tegishlidir. Interyer muhit sifatida ichkarida qabul qilinadigan arxitekturaviy shaklning estetik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etadi. Interyerning arxitekturaviy obyekt turiga (xona, bin ova h.k) bog'liq bo'lgan differensiyalashgan tushunchasi muhitning ma'lum bir turi ko'rinishini joylashtirishning aniq usulini belgilashdan iboratdir.

Interyer estetik shakllanishning jihatlarini anglash uchun ichki muhit tashkil etilishining spetsifikasini chuqur o'rganish talab etiladi. Zamonaviy qurilish sifatini oshirish sharoitlarida sun'iy muhitning naqat funksional, balki estetik tomonlari ham alohida katta ahamiyat kasb etadi. Odamlar vaqtning aksariyat qismi o'tadigan interyerning yechimiga arxitekturaning sifati, spetsifik mazmunining qabul qilinishi va san'at sifatida baholanishi ham bog'liq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib bitiruvchi D.Otajonovning bitiruv malakaviy ishi dolzarb ahamiyatga egadir.

Bitiruvchi D.Otajonovning bitiruv malakaviy ishi amaldagi Nizomlar asosida yoritilgan bo'lib, uning hajmi ____ betni tashkil etadi.

Bitiruvchi o'z bitiruv malakaviy ishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, tasviriyl san'atdan darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tishni samarali yo'llarini va usullarini ishlab chiqdi.

Bundan tashqari u bitiruv malakaviy ishi yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelib, etarlicha ilmiy metodmk xulosalarni ishlab chiqishga harakat qilgan.

Bitiruvchi D.Otajonovning bitiruv malakaviy ishi yuzasidan bilimi va malakasi qo'yilgan muammolarni mustaqil hal qilishga etarli ekanligini xisobga olib, men bu bitiruv malakaviy ishni davlat attestatsiya himoyasiga tavsiya etaman.

**“Musiqqa va mehnat ta'limi ” kafedrasining
katta o'qituvchisi:**

A.Bobojonov